

XALQARO XUSUSIY HUQUQNING SUBYEKTI SIFATIDA JISMONIY SHAXSNING HUQUQIY HOLATI

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi
Saydaliyeva Zahroxon Xaydarxo'ja qizi
e-mail: Z.Saydaliyeva@tsul.uz*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxsning subyekt sifatida tan olinishi, uning huquqiy holati qanday ekanligi bayon etilgan. Xalqaro huquqning hamma subyektlarining xalqaro huquqiy maqomi bir xil emas. Chunki ular ishtirok etadigan xalqaro huquqiy munosabatlar, ularga nisbatan qo'llaniladigan huquq normalari turlichadir. Masalan, Xalqaro xususiy huquqning subyekt sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat tan olinadi. Xalqaro xususiy huquq subyektlarining huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. Xalqaro xususiy huquqning subyekt sifatida jismoniy shaxsning huquqiy holati masalalari, uning huquq va muomala layoqati, oila munosabatlaridagi shaxsiy huquqlarini ushbu maqolada tahlil qilib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *xalqaro xususiy huquq, subyekt, jismoniy shaxs, huquqiy holat, huquq layoqati, muomala layoqati.*

KIRISH

Hozirgi kunda davlatlar, shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar rivojlanib bormoqda. Xalqaro xususiy huquq xalqaro huquq tizimida alohida soha hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarni tartibga solishda xalqaro xususiy huquq normalari keng qo'llaniladi. Bunda albatta ushbu munosabatlarning subyektlari va tartibga solish obyektlari inobatga olinadi. Xalqaro huquq subyektlari xalqaro huquqda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi, xalqaro huquqning normalarini yaratishga va amalda tatbiq etishda qatnashishga qodir mustaqil tuzilma hisoblanadi. Bunda subyekt xalqaro huquq normalariga bevosita bo'ysunishi va mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lishi zarur. Xalqaro huquq subyektlari o'ziga xos. Chunki ular xalqaro-huquqiy normalarini yaratish va amalda tatbiq etishda ham ishtirok etadilar. Xalqaro xususiy huquqning subyektlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat subyekt sifatida tan olinadi. Xo'sh, xalqaro xususiy huquqning subyekt bo'lgan jismoniy shaxsning huquqiy holati qanday? Jismoniy shaxs xalqaro xususiy huquqning subyekt sifatida qanday huquqlarga ega? Jismoniy shaxsning xalqaro xususiy huquq munosabatlarida huquq va muomala layoqati ahamiyatga egami? Ushbu maqolada shu kabi masalalar haqida so'z yuritilgan.

MUHOKAMA VA NATIJA

Xalqaro xususiy huquq deganda turli mamlakatlarning xususiy fuqarolari tomonidan munosabatga kirishiladigan yoki shaxs huquqqa ega bo'lganda ham, majburiyati ham o'ziga tegishli bo'lgan holatlarda huquqlarni belgilash, tartibga solish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan huquqning bir qismi tushuniladi. Xalqaro xususiy huquq xalqaro doirada yuz beradigan fuqarolik huquqi va fuqarolik-protsessual huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar, oilaviy, mehnat munosabatlarni tartibga soladi. Shu o'rinda, jismoniy shaxsning xalqaro xususiy huquq subyekti deb tan olinish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tabiiy va xalqaro huquq davrida jismoniy shaxs xalqaro xususiy huquqning subyekti deb hisoblangan. Ammo 19-asrda statizm va huquqiy pozitivizm (amaldagi qonunni aniqlash jarayoni bo'lib, uning amal qilish muddati qonunning paydo bo'lish usuli bilan bog'liq bo'ladi) natijasida jismoniy shaxsni xalqaro xususiy huquq subyektlari safidan siqib chiqaradi. Faqat olimlarning ozchilik qismi jismoniy shaxs xalqaro xususiy huquq subyekti deb hisoblaganlar. Masalan, Fransuz olimi Jorj Scelle, uning fikricha, davlatni fantastika, individual inson esa xalqaro xususiy huquqning yagona real subyekti deb hisoblagan. Bu nuqtai nazarga nisbatan bir qancha tanqidlar bor edi. Shu jumladan Volfgang Fridman uni amaliy va huquqiy ma'noda emas, balki axloqiy va majoziy ma'noda tushunish mumkinligini izohladi. Xamfri Uoldok ham jismoniy shaxs xalqaro xususiy huquqning yagona real subyekti haqidagi Jorj Scellening qarashi falsafa uchun qonundan voz kechishini aytib tanqid qildi. Hans Kelsen, shuningdek, xalqaro xususiy huquq bo'yicha jismoniy shaxs ham subyekt bo'la olishiga xayrixohdir. U davlatning xalqaro xususiy huquq subyekti ekanligi haqidagi umumiy qoidani tan olgan bo'lsa-da, u xalqaro huquqning o'zi tomonidan belgilab qo'yilgan xulq-atvor qoidasini buzganlik uchun shaxslar xalqaro xususiy huquq bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkinligi bilan cheklangan umumiy istisnolar haqida gapiradi. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha shaxs pozitsiyasini qabul qilish borasida Volfgang Fridman olimlarning fikr-mulohazalariga baho berib, masalaning asl mohiyatini tushunishga yordam beradi. U shaxsning xalqaro xususiy huquqdagi faol pozitsiyasi qat'iy huquqiy ma'noni yaxshi tushungan. Jismoniy shaxs faqat o'ta aniq chegaralar va maxsus maqsadlardan tashqari holatda xalqlar huquqining subyekti bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagi mualliflar xalqaro huquqning monistik ta'limotiga ishonadilar, lekin xalqaro huquqlarning monizmiga ishonmaydigan olimlar xalqaro xususiy huquqlar subyekti sifatida jismoniy shaxsga nisbatan ko'proq shubha bilan qarashadi. Oppengeym bu taklifni rad etadi. Chunki xalqlar qonunlari faqat davlatlar tomonidan qabul qilingan qonunlar hisoblanadi. Shuning uchun bu borada faqat davlatlar xalqaro xususiy huquqning yagona subyekti hisoblanadi degan qarash mavjud bo'lgan. Valdok va Fridman ham xalqaro xususiy huquqning jismoniy shaxslar va ularning huquqlari foydasiga ilg'or rivojlanayotganini tan olib, faqatgina davlat xalqaro xususiy huquqning subyekti ekanligi taklifini rad etishdi. Jismoniy shaxsning xalqaro huquqiy maqomini mustahkamlashning tarixiy-huquqiy amaliyoti Jahon urushlari oralig'ida eng yuqori cho'qqiga chiqdi. 2-Jahon urushidan so'ng, Nyurenberg sudlari va inson

huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarning qabul qilinishi jismoniy shaxsning xalqaro huquqda huquqiy maqomining oshishiga olib keldi. Hozirgi kunda ham jismoniy shaxsning huquqiy maqomi o'zgarib, xalqaro huquqiy normalar asosida tartibga solib kelinmoqda. Xalqaro xususiy huquqda u yoki bu munosabat qatnashchisi albatta xorijlik bo'lishi nazarda tutiladi, ya'ni munosabat chet el elementi bilan murakkablashgan bo'lishi kerak. Chet el fuqarosi ikkita-o'zining fuqarolik qonuni yoki hozir u yashayotgan davlatning huquqiy tartibiga bo'ysunadi. Ushbu ikki variantda chet ellik fuqaroning huquqiy holatining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Demak, xalqaro xususiy huquqiy munosabatda chet el fuqarosi ya'ni jismoniy shaxsi huquqiy holati qaysi qonun bilan tartibga solinishi katta ahamiyatga egadir. Bu masalani jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni tushunchasi orqali ham hal etishimiz mumkin. Xalqaro munosabatlarda jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (lex personalis) qo'llaniladi. Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati, shaxsni bedarak yo'qolgan deb topish, shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish, jismoniy shaxsning ismga bo'lgan huquqi, vasiylik va homiylik masalalarini hal etishda qo'llaniladigan huquq normasini aniqlab beradi. Jismoniy shaxsning shaxsiy qonunini tatbiq qilish doirasiga - jismoniy shaxsning fuqarolik huquqiy holati masalalari, uning huquq va muomala layoqati, oila munosabatlari doirasida shaxsiy huquqlar, vorislik munosabatlari kiradi. Shaxsiy qonun ikki variantda qo'llaniladi: fuqarolik qonuni -lex patriae (lex nationalis) va turar joy qonuni - lex domicilii. Fuqarolik qonuniga murojaat qilingan holda, yuqorida qayd etilgan munosabatlar shaxsning fuqaroligi mansub mamlakat huquqiga bo'ysunadi. Turar joy qonunini qo'llashda esa, shaxsning qaysi davlat hududida doimiy yoki muntazam ravishda yashaganligi hisobga olinadi va shu mamlakat huquqi asosiy hisoblanadi. Bir-biridan farqli bu ikki kollizion bog'lovchining birlashuvi qonun chiqaruvchiga jismoniy shaxsning shaxsiy qonunini aniqlashning asosiy masalalarini to'liq tartibga solish imkoniyatini berdi. Shaxsiy qonunning umumlashgan tushunchasi bir qator chet mamlakatlarning (Avstriya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Lixtenshteyn, Portugaliya, Ruminiya hamda MDH mamlakatlarning bir qatorida va h.k.) milliy fuqarolik qonunchiligida ham qo'llaniladi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, u O'zbekiston Respublikasining chet mamlakatlar bilan tuzilgan fuqarolik va oilaviy ishlar bo'yicha huquqiy yordam to'g'risidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarida foydalanilmagan. Jahon huquq tizimida jismoniy shaxsning shaxsiy maqomiga aloqador masalalarni kollizion huquqiy tartibga solishda ikkita asosiy yondashuv ishlab chiqilgan. Birinchi yondashuvni tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, ushbu yondashuvga ko'ra xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxsning shaxsiy maqomi fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat huquqi asosida tartibga solinadi. Bunday yondashuv asosan Yevropa, MDH davlatlari va bir qator Afrika va Sharqiy Osiyo davlatlariga xos hisoblanadi. Shu o'rinda bizda savol paydo bo'ladi. Agar jismoniy shaxsning fuqaroligi bo'lmasa-chi? Yoki u ikki va undan ortiq fuqarolikka ega bo'lsa-chi? Bunda jismoniy shaxs hech qaysi davlat fuqarosi bo'lmasa, apatrid (fuqaroligi bo'lmagan shaxs) hisoblansa, bunday shaxsning shaxsiy maqomi u doimiy yoki oddiy

yashash joyiga (domitsiliy) ega bo'lgan mamlakat qonunlari bilan, uning mavjud bo'lmaganida esa fuqaroligi bo'lmagan shaxsning (apatrid) turar joyi huquqiga ko'ra belgilanadi. Agar jismoniy shaxs ikki va undan ortiq fuqarolikka ega bo'lsa, bu holatda ko'p fuqarolikka ega bo'lgan shaxs eng uzviy bog'liq bo'lgan davlat qonuni uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Ushbu yondashuvdan shuni bilib olishimiz mumkinki, jismoniy shaxs mansub bo'lgan fuqarolik xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxsning shaxsiy maqomini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, jismoniy shaxsning shaxsiy maqomi uning yashash joyi yoki turar joyi qonuni bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv ko'proq AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlarida va Yevropaning ayrim davlatlarida tatbiq etiladi. Yuqoridagi davlatlarda yashash joyi qonuni universal kollizion bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi, chunki u jismoniy shaxs biron-bir fuqarolikka ega bo'lish, bo'lmasligidan qat'i nazar, qo'llanishi lozim bo'lgan huquqni aniqlash imkonini beradi. Agar shaxs bir necha davlatlarda yashash joyiga ega bo'lsa, u eng uzviy bog'liq bo'lgan davlat qonuni tanlab olinadi. Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1168-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, Jismoniy shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, shu mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Agar shaxs ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan taqdirda u qaysi mamlakat bilan eng ko'p uzviy bog'langan bo'lsa, ushbu shaxs uchun o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxs qaysi mamlakatda doimiy yashab turgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Qochoqqa unga boshpana bergan mamlakatning qonuni shaxsiy qonun hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1168-moddasida keltirilgan "shaxs eng uzviy aloqada bo'lgan" va "shaxs doimiy yashayotgan"- "fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi" deb belgilangan FKning 21-moddasida nazarda tutilgan "yashash joyi" tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega bo'ladi. Yashash joyini aniq belgilashning ahamiyati chet el elementi bilan murakkablashmagan munosabatlarga nisbatan huquq normalarini to'g'ri qo'llashda, xususan, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish (FK 33-m.) yoki uni vafot etgan deb e'lon qilish (FK 36-m.) masalalarini hal etishda, majburiyatlarni bajarish joyi (FK 246-m.) va merosni ochish joyini (FK 1117-m.) belgilashda ham katta ahamiyatga egadir. Ushbu holatlarning barchasida jismoniy shaxsning yashash joyining FKning 21-moddasiga mos ravishda "fuqaro doimo yoki asosan yashab turgan joy" sifatida tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga asosan chet ellik shaxsning yashash joyini belgilash mazkur shaxsning maqomini belgilovchi huquq tizimini qo'llashga olib keladi. Agar chet ellik shaxs chet elda doimiy yashash joyiga ega, ammo shu bilan birga uzoq davr mobaynida O'zbekiston Respublikasida yashagan bo'lsa, bunday shaxsning shaxsiy qonunini belgilashda, uning doimiy yashash joyi qonuni yoki mazkur shaxs ko'p vaqtlardan beri yashayotgan joy sifatida O'zbekiston Respublikasi qonuni qo'llanishi lozimmi degan savol kelib chiqadi. O'zbekistonda yashovchi chet ellik shaxslarning maqomini belgilash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini nihoyatda keng qo'llanilishiga

olib keladi. Chet ellik shaxslarga nisbatan qo'llanilishida bevosita qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin bo'lgan FKning 21-moddasiga izohning boshqa muammosi "doimiy va asosan yashab turgan joy" tushunchasining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ("O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirish, chiqish va tranzit o'tish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabr №408 qarori) qo'llanishi lozim bo'lgan tushunchalar bilan bevosita mosligi bilan bog'liq. O'zbekiston hududida turish asosiga qarab mazkur normativ-huquqiy akt chet elliklarni O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchilar va vaqtincha yashovchilarga bo'ladi. Ularning u yoki bu maqomda bo'lishi shakllantirilgan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanadi (ruxsatnoma yoki pasport). Agar FKning 21-moddasida belgilangan "doimiy yashash joyi" tushunchasi O'zbekistonda doimiy yashovchi chet ellik shaxs maqomiga mos kelsa, "asosan yashab turish" tushunchasi va vaqtincha yashab turish maqomi o'rtasida bog'liqlik bo'lmaydi. Qochoqning shaxsiy qonuni unga boshpana bergan davlat qonuni bo'lib hisoblanishi to'g'risidagi qoida fuqarolik qonunchiligida belgilangan. Bunda qochoqlar o'zining fuqaroligi mansub bo'lgan yoki doimiy yashash joyiga ega bo'lgan mamlakatni tark etishga majbur bo'lgan muhim vaziyatlar oqibatida ularning ushbu mamlakat bilan aloqasi yo'qolishi va ularni qabul qilgan mamlakat huquqi qochoqlarning huquqiy holatini belgilovchi bo'lib qolishini aks ettiradi. Aynan qabul qilgan davlatning qonunchiligi qochoq tushunchasini, shaxs qochoq maqomini olishi mumkin bo'lgan shartlarni va bunday maqom olgan shaxslarning huquqiy holatini belgilaydi. Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxs huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi barcha davlatlarda bir xilda belgilanmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 17-moddasida Shaxslarning huquq layoqati belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Demak, mamlakatimizda shaxs tug'ilgan paytdan boshlab huquq layoqatiga ega bo'ladi. Endi shaxsning xalqaro xususiy huquq subyekti sifatidagi huquq layoqati qanday ekanligini o'rganib o'tsak. Fuqarolik kodeksining 1169-moddasida Jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatlari uning shaxsiy qonuni bilan belgilanadi deb ko'rsatilgan. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadilar, O'zbekiston Respublikasining qonunlari yoki xalqaro shartnomalarida belgilangan hollar bundan mustasno. Fuqarolik Kodeksining 1168-moddasi (Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni) qoidalar bilan 1169-moddasining normasi birgalikda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi munosabatlar uchun qo'llanilmaydi (FK 2-modda 3-qism: "Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik qonunchiligida belgilab qo'yilgan qoidalar chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarga qo'llaniladi"). Shu tariqa, maxsus normalarning tashqi iqtisodiy, investitsiyaviy, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish hamda kooperatsiya, tovarlar, axborotlar, ish, xizmatlar, intellektual mulk

natijalarini xalqaro ayirboshlash doirasidagi faoliyat sohasidagi umumiy bo'lgan normalardan ustunligi oqibatida, chet ellik fuqarolarning huquq layoqati ular mansub bo'lgan mamlakat huquqi bilan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq layoqati esa ushbu shaxslar doimiy yashash joyiga ega bo'lgan davlat huquqi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, Germaniyada ham shaxs tug'ilishi bilan huquq layoqatiga ega bo'ladi va vafot etishi bilan esa tugatiladi. Yana bir romana-german oilasiga mansub davlat Italiyada esa bola tug'ilganidan 24 soatdan so'ng huquq layoqati vujudga keladi. 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk konvensiyasining 23-moddasida jismoniy shaxsning huquq layoqati ushbu shaxs qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlat qonunchiligi bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Jismoniy shaxsning fuqarolik huquq layoqati barcha fuqarolarga nisbatan teng ravishda tan olinishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 17-modda 1-qismida belgilangan. Ammo huquq layoqatining mazmuni, ya'ni jismoniy shaxsning mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishi, mol-mulkni meros qilib olishi va vasiyat qilib qoldirishi, tadbirkorlik hamda qonun bilan taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishi, boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda yuridik shaxslar tashkil qilish, qonun bilan taqiqlanmagan har qanday bitimlarni amalga oshira olishi va majburiyatlarda ishtirok etishi, yashash joyini tanlashi, fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtiro va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishi, boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi jismoniy shaxsning huquqiy maqomiga bog'liq bo'ladi. Suverenitet natijasida davlat bir tomondan uning hududidagi shaxslarning yurish-turish qoidasini ushbu davlat chegarasida sodir bo'lgan harakatlarga nisbatan ham belgilashi mumkin. Boshqa tomondan esa bir davlat qonunchiligining ta'siri chet davlatda bo'lgan ushbu davlat fuqarolariga ham targ'ib qilinishi mumkin. Shu tariqa, bir davlat fuqarosi chet mamlakatda bo'la turib, bir vaqtning o'zida ikkita davlat yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. Yuqorida ta'kidlanganlarni inobatga olgan holda, milliy qonunchilikka O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomini belgilaydigan moddiy-huquqiy norma kiritilgan. O'zbekiston hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik huquqiy layoqati chegaralari milliy tartib tamoyili asosida belgilanadi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari ko'ra ma'lum bir majburiyatlarga ega bo'ladilar. Xalqaro xususiy huquqning subyekt sifatida jismoniy shaxsning mumoala layoqati Fuqarolik kodeksining 1169-moddasida o'z aksini topgan. Jismoniy shaxsning bitimlar va zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan fuqarolik muomala layoqati bitimlar tuzilgan yoki zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzaga kelgan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi. Jismoniy shaxsning xususiy tadbirkor bo'lish hamda bu bilan bog'liq huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati jismoniy shaxs xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatga

olingan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi. Ro'yxatga olish mamlakati bo'lmaganda, xususiyl tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan asosiy joy bo'lgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi. Shaxsning muomala layoqati xuddi huquq layoqati singari har xil davlatlarda turlicha belgilangan. O'zbekiston va Yevropaning ko'pgina davlatlarida 18 yosh, Shveysariyada 20 yosh, Amerikaning ko'pgina shtatlarida ham 20 yosh shaxsning muomala layoqatiga ega bo'lish yoshi deb belgilangan. Oz'bekiston fuqarolarining muomala layoqati Oz'bekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tomonidan cheklanishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni muomalaga layoqatsiz deb topish ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga bo'ysunadi. Ushbu holatda muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish asoslari Fuqarolik kodeksining 30 va 31-moddalari bilan tartibga solinadi. Huquq tizimlarining romano-german huquqi o'z fuqarolarining muomala layoqatini chet el qonuni asosida cheklanishiga rozi bo'lmaydi. Ammo shunga qaramasdan, O'zbekiston hududida bunday sud qarori yuridik kuchga ega hisoblanadi.. Bir tomonlama kollizion norma O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet mamlakatda muomala layoqatining cheklanishi yoki muomalaga layoqatsiz deb topilishi qaysi qonunga bo'ysunishi masalasini ochiq qoldiradi. Ammo uning sharhlanayotgan qoidani ikki tomonlama kollizion norma shaklida (masalan, "jismoniy shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish sudlov mamlakati qonuniga bo'ysunadi") ifoda etgan holda tartibga solish, maqsadga muvofiqligi ehtimoldan uzoqdir. Fuqarolik kodeksining 1169-moddasi beshinchi qismining afzalligi shundaki, umumiy bog'lovchi formulaning mavjud emasligi holatida bir qator mamlakat sudlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muomala layoqatini cheklash masalalarini ularning shaxsiy qonuni bilan ya'ni O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan hal qiladi, bu esa muayyan aniqlik va aytib bera olish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz lozimki, jismoniy shaxs xalqaro xususiyl huquqning ajralmas bir elementi, subyekti hisoblanadi. Jismoniy shaxs xalqaro xususiyl huquqning subyekti bo'lishi uchun ma'lum bir belgilangan huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak, xalqaro munosabatlarga kirishganda o'zining shaxsiy qonuni qo'llaniladi. Jismoniy shaxsning fuqarolik huquqiy layoqati uning shaxsiy qonunida o'zgacha tarzda belgilanadi. Ushbu jismoniy shaxs mansub bo'lgan yoki u yashaydigan mamlakatning suverenitetini buzilishini anglatadi. O'z navbatida, O'zbekiston hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik huquqiy layoqati mazmunini va uning chegaralarini boshqa mamlakat huquqi bilan belgilash, O'zbekiston Respublikasining ichki ishlariga aralashish bo'lib hisoblanadi. Xalqaro xususiyl huquqning subyektlariga oid, aynan jismoniy shaxsning huquqiy holatiga oid muammolar, kamchiliklar va nizoli vaziyatlar talaygina. Lekin shu bilan ushbu soha rivojlanishdan to'xtab qolmayabdi, yildan-yilga rivojlanib, xato-kamchiliklar tuzatilib, jismoniy shaxsning xalqaro xususiyl huquqdagi o'rne oshib bormoqda. Yillar o'tib qonunchiliklarga yangiliklar kiritilgani sayin kamchiliklar ham bartaraf etib boriladi. Jismoniy shaxsning xalqaro xususiyl huquqda o'rnini

mustahkamlash va yuqorida sanab o'tilgan kamchililarni bartaraf etish uchun taraflar uchun yagon bo'lgan qonun normasini ishlab chiqish, davlatlardagi shaxsning huquq va muomala layoqati bilan bog'liq har xillikni yo'qotib barcha davlat fuqarolari uchun bir xil bo'lgan ko'rsatgichlarni joriy etilishi kerak deb hisoblayman. Shunda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk konvensiyasi
3. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirish, chiqish va tranzit o'tish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabr 408-sonli qarori
4. Xalqaro xususiy huquq. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. //H.R.Rahmonqulov va boshq.H.B.Boboyev, M.X.Rustamboyev, O.Oqyulov, A.R.Raxmanovlarning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYI nashriyoti, 2002, 488-bet.
5. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. -T.: TDYU, 2019. – 343 b.
6. <https://lex.uz/docs/-111189>
7. <https://lex.uz/ru/docs/2741652>
8. https://www.tndalu.ac.in/econtent/48_Private_International_Law.pdf
9. https://www.mpil.de/files/pdf4/Beyond_Human_Rights__Chapter_Abstracts1.pdf
10. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/download/8373/7667/8495>

8495